

TA'LIMNI TEXNOLOGIYALASHTIRISH VA FANNI O'QITISHDA KEYS  
TEXNOLOGIYASINING O'RNI

*Mirzahmedov Mirzohid Ismoilovich*

*Toshkent davlat transport universiteti. katta o'qituvchi*

[Mirzahmedov75@mail.ru](mailto:Mirzahmedov75@mail.ru)

**ANNOTASIYA**

Maqolada yangi pedagogik texnologiyalar tarkibiga kiruvchi muammoli vaziyatlarni xal etishga qaratilgan KEYS texnologiyasi, uning ahamiyati va tarkibiy tuzilishi bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogik texnologiya, keys texnologiyasi, muammo, yechim, yechim variantlari, yechim taxlili, keys topshiriqlari.

**ABSTRACT**

The article describes the KEYS technology, its importance and structural structure aimed at solving problematic situations that are part of new pedagogical technologies.

**Keywords:** pedagogical technology, case technology, problem, solution, solution options, solution analysis, case assignments.

Keyingi paytlarda ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish jadal sur'atlarda kirib keldi. Texnologiyaning asosiy maqsadi natijaga erishishning kafolatlangan usullaridan foydalangan xolda ta'lim jarayonini sifatini oshirish va malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. So'nggi yillarda texnika va texnologiyalar, shu bilan birga axborot kommunikasion va telekommuniuasion texnologiyalarning rivojlanishi insonlar xayotini tubdan o'zgartirib yubordi. Pedagogik texnologiyalar shu texnika va texnologiyalardan xam o'z o'rnida samarali, foydalanish imkoniyatlarini xam yaratib beradi.

Ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni qo'llashning tarixi sifatida quyidagi malumotlarni keltiramiz.

XVII asrda Yan Amos Komenskiy o'z tadqiqotlarida, ta'lim jarayonining va jarayonlar, amalda kutiladigan natijani berishi kerak. Bunday mexanizmni

1. Maqsadning aniq qo'yilishi.
2. Aniq maqsadga erishish uchun, vositalarning to'g'ri tanlanishi.

3. Vositalardan to‘g‘ri foydalanish uchun esa, aniq qoidalarga amal qilinishi

XX asr 30-yillarda pedagogik jarayonda axborotni taqdim etishning eshitish va ko‘rish (audio-vizual) vositalari qo‘llanildi.

1954 yil - professor B.F.Skinner tomonidan dasturlashtirilgan o‘qitish modeli asoslab berildi. Bu operatsiya ta‘lim texnologiyasi bo‘lib (mavzu – qadam - kadr), u xar bir o‘quv topshirig‘ining to‘g‘ri bajarilganligini tezda baholash va xatolikka yo‘l qo‘ygan bo‘lsa orqaga qaytish kabi **qaytar aloqani** nazarda tutadi.

1950-60 yillarda – pedagogik jarayonda maxsus **audiovizual vositalardan foydalanish va ularni qo‘llash usuli yaratildi.**

**70-yillarda** TT – ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan omillarni tahlil qilish orqali, ma‘lum bir tuzilmaga keltirish hamda usul va vositalarni qo‘llash yo‘li bilan, **qo‘llanilayotgan usullarni baholash** orqali ta‘lim jarayonining eng maqbul prinsiplarini aniqlash hamda amalga oshirishni ishlab chiqish maqsadidagi izlanishdir

**80-yillarda** TTni – “ta‘lim shakllarining eng maqbul vazifalaridan biri, ta‘lim berish jarayonini hamda bilimlarni shakllantirishda texnik va **insoniy manbalarni hisobga olgan holda o‘zlashtirish hamda ularning o‘zaro harakatini yaratish, qo‘llash va aniqlashning tizimli usuli**” deb tan olingan (YUNESKO, 1986 y.)

O‘quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ishlab chiqarishdan andoza

«**Texnologiya**» yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib “*techne*” - mahorat, san‘at, amalaka va “*logos*” - so‘z, o‘qitishot ma‘nolarini anglatadi.

**Ishlab chiqarish texnologiyasi:**

➤ xomashyo, material, yarim tayyor mahsulotlarni olish, ularni qayta tayyorlash yoki ularga ishlov berish yo‘l va usullarining yig‘indisi (texnologiyani **jarayonli-bayonli jixati**);

➤ yuqorida ko‘rsatilgan yo‘l va usullarni ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi *ilmiy fan*. Texnologiyani ilm sifatidagi vazifasi, moddiy manba va vaqtlar kam sarflashni talab etuvchi samarali va tejamkor ishlab chiqarish jarayonlarini aniqlash va amaliyotda ulardan foydalanishni aniqlash maqsadidagi qonuniyatlarni topish hisoblanadi (**ilmiy jixati**);

➤ *jarayonning o‘zi* – topilmani qazib olish harakatlari, ishlov berish, qayta ishlash, transportda tashish, omborga joylash, saqlash, shuningdek ishlab chiqarishning texnik nazorati (**jarayonli harakat jixati**).

“Pedagogik texnologiya” tushunchasi nimani bildiradi?

“**Pedagogik texnologiya**” – ta‘limni texnologiyalashtirish sohasida pedagogik hodisa va jarayonda qo‘llaniladigan tushunchadir.

**O‘qitishni texnologiyalashtirish**-(1) bu o‘qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida o‘qitish maqsadlariga erishishning eng maqbul usul va vositalarni tadqiq qiluvchi, qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo‘nalishdir. (2) bu o‘qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta’limiy maqsadlarga erishishning yo‘lidir.

**“Ta’lim texnologiyasi”** –o‘z oldiga o‘qitish shakllarining maqbul vazifasini qo‘yuvchi, texnik va insoniy manbalar (resurslar) va ularning o‘zaro harakatini hisobga olgan holda ta’lim berish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonlarini aniqlash hamda qo‘llashning yaratuvchi tizimli usulidir (YUNESKO). *Ta’lim texnologiyasi va uning konseptual asosnomasini (TT ilmiy tomoni) o‘z ichiga oladi.*

**“Ta’lim texnologiyasi”** –o‘z oldiga o‘qitish shakllarining maqbul vazifasini qo‘yuvchi, texnik va insoniy manbalar (resurslar) va ularning o‘zaro harakatini hisobga olgan holda ta’lim berish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonlarini aniqlash hamda qo‘llashning yaratuvchi tizimli usulidir (YUNESKO). *Ta’lim texnologiyasi va uning konseptual asosnomasini (TT ilmiy tomoni) o‘z ichiga oladi.*

#### **Fanni o‘qitish usuli –**

- Ta’lim tizimida ushbu o‘quv fanining ahamiyati va o‘rnini belgilaydi,
- Uning vazifalari va o‘qitish mazmunini aniqlaydi,
- Ushbu fan bo‘yicha qo‘llanilayotgan usul, shakl va vositalarini o‘z ichiga oladi.

Pedagogik texnologiyalar o‘z ichiga Keys texnologiyasi va o‘quv loyixa usuli xam katta ahamiyatga ega.

**Keys-o‘qitish** (inglizcha case - to‘plam, aniq vaziyat, stadi -ta’lim) - keysda bayon qilingan va ta’lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo‘naltiradigan aniq real yoki sun’iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan *ta’lim uslubidir.*

**Keys-o‘qitish** - ta’lim, axborotlar, kommunikasiya va boshqaruvning qo‘yilgan ta’lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o‘quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta’minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo‘lgan *ta’lim texnologiyasidir*

Keys texnologiyasi ilk bor Garvard universitetining huquq maktabida 1870 yilda qo‘llanilgan. 1920 yilda Garvard biznes-maktabi (HBS) o‘qituvchilari yuristlarning o‘qitish tajribasiga tayanib, iqtisodiy amaliyotdagi aniq vaziyatlarni tahlil etish va muhokama qilishni ta’limning asosiy usuli etib tanlashganidan keyin mazkur o‘qitish uslubi keng tadbiiq etila boshladi.

Keyslar tipologik belgilari va turiga ko‘ra quyidagicha bo‘ladi.

<b>Tipologik belgilari</b>	<b>Kyeys turi</b>
<b>Asosiy manbalari</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Daladagi</li> <li>2. Kabinetdagi</li> </ol>
<b>Syujet mavjudligi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Syujetli</li> <li>2. Syujetsiz</li> </ol>
<b>Kyeys ob‘yekti</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Shaxsiy</li> <li>2. Tashkiliy-institusional</li> <li>3. Ko‘p sub‘yektli</li> </ol>
<b>Hajmi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Qisqa (lo‘nda)</li> <li>2. O‘rtacha miqdordagi</li> <li>3. Katta (uzun)</li> </ol>
<b>O‘quv topshirig‘ini taqdim etish usuli</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Savolli</li> <li>2. Keys-topshiriq</li> </ol>
<b>Didaktik maqsadlari</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Muammo, yechim yoki konsepsiyani izohlash</li> <li>2. Treningli, o‘quv mavzui/predmeti bo‘yicha malaka va ko‘nikmalar orttirishga mo‘ljallangan</li> <li>3. Tahlil va baholashga o‘rgatuvchi</li> <li>4. Muammoni ajratish va yechish, boshqaruvchilik qarorlari qabul qilishga o‘rgatuvchi</li> <li>5. Vaziyat sub‘yekti rivojining yangi strategiyalari va yo‘llari, yangicha baholash uslublari va shu kabilarni ishlab chiqishga rag‘batlantiruvchi</li> </ol>
<b>Didaktik maqsadlari</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Bosma</li> <li>2. Elektron</li> <li>3. Video-keys</li> <li>4. Audio-keys</li> <li>5. Multimedia-keys</li> </ol>

Keys- o‘qitish texnologiyani amalga oshiruvchi o‘qituvchi faoliyatining bosqichlari quyidagilardan iborat bo‘ladi.

- tayyorgarlik bosqichi
- asosiy bosqich: keys-o‘qitish texnologiyalarni amalga oshirish
- tahliliy, baholovchi bosqichi.

Agar keys topshirig‘i auditoriyadan tashqarida bajarilsa, u murakkab ilmiy-tadqiqotchilik, uslubiy va konstruksiyalash faoliyatini o‘z ichiga olib, o‘qituvchi harakatlarning quyidagi izchilligi bilan bog‘liq bo‘ladi:

- kyeysni yaratadi (agar tayyor keysdan foydalanilmasa);
- o‘qitish texnologiyasini loyihalashtiradi va rejalashtiradi;

- talabalarni tayyorlaydi, ularning keys bilan mustaqil ishlashi uchun o'quv va uslubiy ta'minotni ishlab chiqadi.

Keys-o'qitish texnologiyalarni loyihalashtirishda o'qituvchi xarakterlarining izchilligi quyidagicha bo'ladi.

- Ishchi dasturi asosida o'quv mashg'uloti shakli, turi va vaqtini belgilaydi (seminar/amaliy mashg'ulot).

- O'quv mashg'uloti maqsadini ifodalaydi, o'quv mashg'ulotidan kutiladigan natijalar va pedagogik vazifalarni belgilaydi.

- Ta'limning optimal modelini (belgilangan vaqtda va qaror topgan sharoitlarda qo'yilgan maqsadning amalga oshirilishini va prognoz qilinadigan o'quv natijalariga erishishni kafolatlaydigan optimal ta'lim uslublari, shakllari va vositalari majmui)ni tanlaydi.

- O'quv vaqt, keys hajmi va tanlangan ta'lim modelini inobatga olib o'quv mashg'ulotining texnologik chizmasini ishlab chiqadi.

- Modelni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni belgilaydi: o'quv vaqti, auditoriyadagi talabalarining ehtimoliy soni; auditoriyaning guruhlarda ta'limni tashkil etish, TTV va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish uchun imkoniyatlari.

- Monitoringni ta'minlaydigan teskari aloqa usullari va vositalarini belgilaydi.

- Ta'limdagi yutuqlarni oraliq va yakuniy baholash usullari va vositalarini belgilaydi.

- Loyihalashtirish faoliyati natijalarini jadval shaklida rasmiylashtiradi.

Keys o'qitish texnologiyasini rejalashtirish quyidagicha amalga oshiriladi.

Tanlangan ta'lim modeli va o'quv mashg'ulotining loyihalashtirilgan tuzilishi asosida o'qituvchi o'qitish texnologiyasini rejalashtiradi.

O'quv mashg'ulotida o'qitish texnologiyasini rejalashtirish texnologik xarita ko'rinishida amalga oshirilishi mumkin.

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasini ILOVALARIGA quyidagilar kiradi:

- talabalar bilimlarini dolzarblashtirish uchun savollar;
- talabalar o'quv ishi jarayonida amal qilishi lozim bo'lgan yo'riqnomalar, qoidalar (masalan, aqliy hujum qoidalari);

- o'qituvchi ta'lim jarayonida qo'llanadigan chizmalar, jadvallar va boshqa vizual materiallar;

- munozarani o'tkazish uchun qo'shimcha savollar va boshqalar.

Keys-o'qitish texnologiyasining pyedagogik pasportida quyidagillar nazarda tutiladi.

1) pedagogik annotasiya

2) keys

3) talabaga uslubiy ko'rsatmalar

4) o'qituvchi – keysologning keysni hal etish varianti

5) keys-o'qitish texnologiyasi

Keysning pedagogik annotasiyasi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

1. Keys mo'ljallangan predmet, bo'lim, mavzu, ta'lim darajasi, kurs ko'rsatiladi.

2. Kyeysdan ko'zlangan maqsad (ta'limiy maqsad, rejalashtiriladigan o'quv natijalari).

3. Talabalar keysni muvaffaqiyatli hal etish uchun egallashi lozim bo'lgan dastlabki bilim va malakalar.

4. Kyeys real institusional tizim faoliyatini aks ettirishi yoki unda keysolog sun'iy modellashtirgan vaziyat bayon qilinishi haqidagi ma'lumot.

5. Axborot olish manbalari ro'yxati

6. Keysning o'ziga xos belgilariga ko'ra tavsifnomasi (syujet, keys ob'yekti mavjudligi, hajmi, tuzilmaviy o'ziga xos xususiyatlari, o'quv topshirig'ini taqdim etish usuli, chizmalashtirish usuli).

7. Kyeysdan ko'zlangan maqsad va tegishlicha, tashkiliy-uslubiy ta'minoti o'zgarganida u qo'llanilishi mumkin bo'lgan o'quv predmetlari ro'yxati.

KEYS texnologiyasini fanga qo'llash, talabalarda fan mavzularini muammoli vaziyatlarga aylantirib xayotiy jarayonlarga tadbiiq etish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

#### **ADABIYOTLAR**

1. M. I. Mirzahmedov. "Keys" texnologiyasini nazariy mexanika fanini o'qitishga tadbiiq etish. TAYI xabarnomasi, 2017-yil, 2-son, 30 b.

2. L. V. Golish. Innovasion ta'lim texnologiyalari –T.: TDIU, «Iqtisodiyot» 2011, 133 b.